

HUQUQ PRINSIPLARI TUSHUNCHASI VA MOHIYATI

Tilavov Tolib

ANNOTATSIYA: Huquqiy tizimning asosiy tarkibiy qismi hisoblangan huquq prinsiplari tushunchasi va mohiyati, uning ichki tuzilishi, shu bilan bir qatorda, huquq prinsiplari normativ-huquqiy hujjat tayyorlashning butun jarayonida ya'ni ularni qabul qilish, chiqarish hamda rioya etish talabini belgilab berishligi, huquq prinsiplarining mavjudligi huquq sohasi, balki butun huquq tizimining tuzilishi hamda harakatlanishi uchun zamin bo'lib xizmat qilishi, huquq prinsiplari bevosita qonun hujjatlarida mustahkamlanishini, ba'zida huquq normalarining mazmunidan kelib chiqishligi haqida fikr yuritiladi.

KALIT SO'ZLAR: huquq, prinsip, mohiyat, tizim, funksiya, tamoyil, huquq sohasi, "normativizm", norma, erkinlik, tenglik, normative-huquqiy hujjat, tarmoq.

АННОТАЦИЯ: Понятие и сущность принципов права, которые являются основными составляющими правовой системы, ее внутренняя структура, а также то, что принципы права определяют требования к их принятию, изданию и соблюдению во всем процессе подготовки нормативных правовых документов, существования принципов права считается, что область права служит основой строения и движения всей правовой системы, что принципы права непосредственно закрепляются в правовых документах, а иногда и они вытекают из содержания правовых норм.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: право, принцип, сущность, система, функция, принцип, область права, «нормативизм», норма, свобода, равенство, нормативно-правовой документ, сеть.

ABSTRACT: The concept and essence of the principles of law, which are the main components of the legal system, its internal structure, as well as the fact that the principles of law determine the requirements for their acceptance, issuance and compliance in the entire process of preparing normative legal documents, the existence of the principles of law it is thought that the field of law serves as a ground for the structure and movement of the entire legal system, that the principles of law are directly strengthened in legal documents, and sometimes they are derived from the content of legal norms.

KEY WORDS: law, principle, essence, system, function, principle, field of law, "normativism", norm, freedom, equality, normative-legal document, network.

Taraqqiylashib borayotgan mamlakatlar miqyosida huquq normalari, huquq prinsiplari hamda huquq funksiyalari keng rivojlanib bormoqda. Mamlakatimizning huquqiy tizimi ham muayyan huquqiy prinsip asosida faoliyat yuritishi hech kimga sir emas. Huquq prinsipi - huquqiy yo'nalish ya'ni tizimning muhim tarkibiy qismi bo'lib, butun huquqiy materiyani ya'ni, g'oyalar, huquqiy hayot bundan tashqari, norma va munosabatlarning bir-biri bilan uzviy bog'liqligidan tashkil topgan holat hisoblanadi. Huquqshunos X.Odilqoriyevning fikricha: "Huquq prinsiplari huquqning shakllanish jarayoni, rivojlanishi va harakatlanishining rahbariy g'oyasi, boshlang'ich qoidasi, yetakchi mezon sifatida namoyon bo'ladi"¹. Bundan ko'rinadiki, huquq normalari hamda qonunchilikda o'zini namoyon qiluvchi huquq prinsiplari jamiyat va davlatning ijtimoiy tizimiga, hamda siyosiy-iqtisodiy hayotiga to'la-to'kis aralashib ketadi. Birinchidan, huquq mohiyati hamda uning mazmuni, ikkinchidan uning ichki tuzilishi, shu bilan bir qatorda, huquq prinsiplari normativ-huquqiy hujjat tayyorlashning butun jarayonida ya'ni ularni qabul qilish, chiqarish hamda rioya etish talabini belgilab berishga xizmat qiladi.

¹ X.Odilqoriyev. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik

Avvalo, "prinsip" atamasining o'zi etimologik talqiniga murojaat qilish lozim bo'ladi. Zamonaviy rus tilining katta tushuntirish lug'atida Ushakova D.N. "Prinsip" deganda "biror narsa qurilgan asosiy tamoyil" deya ta'rif bergan.² S.I Ozhegov va N.Yu.Shvedova esa "prinsip"ni "har qanday nazariya, ta'limot, dunyoqarash, nazariy dasturning asosiy, boshlang'ich pozitsiyasi" deb ta'riflaydi.³ V.I. Dahl "prinsip" -bu "ilmiy yoki axloqiy tamoyil, asos va qoida undan og'ishmaydi" ta'riflagan.⁴ Falsafiy ensiklopedik lug'atda "prinsip" deganda "isbotlab bo'lmaydigan va isbot talab qilmaydigan fundamental nazariy bilim" tushuniladi⁵ Agar biz yuridik fanga nisbatan prinsiplar haqida gapiradigan bo'lsak, unda yuqorida ta'kidlanganidek, mahalliy va xorijiy huquqshunoslar o'rtasida "huquq prinsipi" tushunchasi bo'yicha konsensus mavjud emas. Inqilobdan oldingi davr vakillari davlat va huquqning ichki nazariyasida huquq tamoyillarini "qonun chiqaruvchi tomonidan bir qator huquqiy normalarga ongli yoki ongsiz ravishda kiritilgan umumiy g'oya, yo'nalish" deb tushunganlar. Sovet davrining huquqshunos olimlari huquq tamoyillari "huquq tizimi tuziladigan obyektiv ravishda belgilangan tamoyillar" deb hisoblashgan.⁶ Sovet nazariyotchilari huquq tamoyillarini tushunishni muhokama qilganda, N.G. Aleksandrovning pozitsiyasini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Uning fikricha, "sotsialistik huquqning asosiy tamoyillari ijtimoiy munosabatlarni sotsialistik huquqiy tartibga solish mazmunining umumiy yo'nalishi va eng muhim xususiyatlarini ifodalovchi qoidalaridir"⁷ Agar huquq tamoyillarini tushunishga zamonaviy umumiy nazariy yondashuv haqida gapiradigan bo'lsak, davlat va huquqning umumiy nazariyasida huquq tamoyillari odatda uning (qonun) jarayonining asosiy g'oyalari, boshlang'ich nuqtalari yoki etakchi tamoyillari sifatida tushuniladi. A.A.Gamaley huquq prinsiplarini "o'ziga xos ijtimoiy tartibga soluvchi sifatida huquqning mohiyatini ifodalovchi asosiy, dastlabki tamoyillar, qoidalar, g'oyalar" deb belgilaydi⁸ "Huquq tamoyillari" tushunchasiga berilgan ta'riflar yuridik fanda umumiy qabul qilingan "standart" bo'lib, shunga o'xshash ta'riflarni davlat va huquq nazariyasi bo'yicha yuridik fanlarni o'qitishda foydalaniladigan ko'plab akademik darsliklarda ham topish mumkin. Yuqoridagi fakt, huquq fanlari vakillari ushbu huquqiy tushunchani mohiyati, vujudga kelish sabablari, mohiyati, huquqni muhofaza qilish organlariga va umuman fanga ta'siri nuqtai nazaridan chuqurroq anglashga ko'p urinmoqda. Ko'rib chiqilayotgan "prinsip" tushunchasining yuqoridagi ta'riflaridan umumiylikni ajratib, biz uni ta'limotning shakllanishidan oldingi boshlang'ich nuqtasi, asosi, kategoriyasi, ma'lum bir "poydevor" sifatida tavsiflash mumkin deb hisoblaymiz.

Sohaning muammolari haqida fikr yuritadigan bo'lsak, huquq tamoyillari ya'ni prinsiplari mahalliy fan uchun muammo emas. Bundan ko'rinadiki, yaqin tarixda huquq nazariyasi, sohaviy huquq fanlarida o'rganilgan. Huquqning umumiy huquqiy, tarmoqlararo, tarmoq va boshqa tamoyillarini tahlil qiluvchi asarlar yaratilayotgani huquq sohasining bir yutug'i hisoblanadi. XX asr boshlarida huquq tizimidagi o'zgartirish hamda qo'shimchalar yuzasidan N.N.Alekseyev fikr bildiradi. Bunga ko'ra: "Huquqning umumiy tamoyillarini shakllantirishda juda katta qiyinchilik bor. Dogmatik yurisprudensiya hech qanday umumiy g'oya bilan bog'lanmagan va umumiy tizim bilan birlashtirilmagan. Asosan mustaqil fanlarga bo'linib ketdi. Har bir huquq fanining o'ziga xos umumiy qismi va o'ziga xos umumiy

² [Ushakov, 2008: 795].

³ [Ozhegov, Shvedova, 1999:595].

⁴ [Dal, 2005: 446]

⁵ [Falsafiy ensiklopedik lug'at, 2006: 363].

⁶ [Lukashova, 1970: 21].

⁷ [Aleksandrov, 1957: 17].

⁸ [Gamaley, 2016: 17].

tushunchalari bor va har bir alohida fanning mahalliy ehtiyojlaridagi bu farq qarama-qarshiliklarga to'la mantiqiy ta'riflarning ko'pligini keltirib chiqardi."

Huquq prinsipi sohasining yana bir fanda e'tirof etiladigan jihati huquq tamoyillari konsepsiyasi bo'yicha 2-guruhga ajratilishidir. Bunga ko'ra, ular huquqning tushunish yondashuvi bilan keng va tor guruhlarga ajratiladi. Birinchi holda, huquqiy hodisalar hamda huquq normalari bundan tashqari, qonunni qo'llash akti, huquqiy tartib, huquqiy ong, huquqiy munosabatlar va shunga o'xshash g'oyalar huquq tamoyillarining keng talqindagi tushunchasi bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchidan, Qonunga hamda boshqa umume'tirof etilayotgan manbalarda qisqarishini kuzatish mumkin. Bu holatda olimlar tomonidan qonun doirasidan tashqari prinsiplar tashkil etmasligi ifodalanadi. Huquq bilan bog'liq holda shuni yodda tutish kerakki, barcha sohalarda bo'lgani kabi bu huquq sohasida ham tamoyil, eng avvalo, g'oyadir. Ammo, shunchaki fikr emas balki, huquqning o'zi g'oyalarga aylanib qolmaganidek, normalarni ham, ijtimoiy munosabatlarni ham qamrab olishi uning tamoyillari ham faqat g'oyalar doirasidan chiqib, me'yoriy va huquqni qo'llash mazmuniga ega bo'lishini kuzatish mumkin. V.M.Vaginning ta'kidlashicha, "Huquq prinsiplari - bu pozitiv huquqning turli shakllari mazmunidan kelib chiqadigan, bundan tashqari, barqaror huquqiy amaliyotda ifodalangan umume'tirof etilgan fundamental g'oyalar hisoblanib, ular huquqning rivojlanish qonunlarini bilish darajasini maxsus qonun sifatida aks ettiradi. Huquq prinsiplarining boshqa hodisalar bilan o'zaro ta'sirining turli jihatlarini o'z ichiga olgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, huquqning o'zi mustaqil huquqiy qonuniyatlar hamda sifat xususiyatlari bo'lib e'tirof etiladi. Huquqning barcha tamoyillarining mazmuni amaldagi qonunchilik va barqaror yuridik amaliyot mazmunidan kelib chiqadi. Huquq prinsiplarining turli xil xususiyatlarining xilma-xilligini haqli ravishda qayd etadi va ularni qonunchilik hamda sud amaliyotida rasmiy birlashtirish bilan cheklanadi. Huquq tamoyillarini keng tushunish huquqiy munosabat vakillarini qonun va huquq o'rtasidagi farqga qaratilgan fikr birlashtiradi. Biroq, huquq va uning prinsiplarini bunday tushunish uning boshqa huquqiy hodisalarda yemirilishiga olib keladi.

Ba'zi prinsiplar qonun hujjatlarida ma'lum bir vaqtgacha aniq ifodalanmasdan shakllantirilishi, takomillashtirilishi hamda amal qilinishi mumkin. Bu holatda, ular sud amaliyoti va huquqiy urf-odatlar ya'ni odat huquqi sohasida, subyektiv huquqlarning paydo bo'lgan komplekslari va o'ziga xos xususiyatlar sohasida faoliyat ko'rsatishini bilish mumkin. Huquqiy munosabatlar orqali eng yaxshi tizim konstitutsiyaviy qonunchilikdagi asosiy tamoyillarni to'liq birlashtirishdir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 27-moddasida ham xalqaro miqyosdagi huquq tarmog'ining asosiy prinsiplaridan biri mustahkamlangan bo'lib, bunga ko'ra hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emasligi⁹ aytiladi. Bundan ko'rinadiki, xalqaro miqyosda umume'tirof etilgan insonparvarlik, odillik, qonuniylik hamda demokratizm prinsiplariga tayangan holda shaxslarning huquq va erkinliklar va qonun normalari oldida tengligi huquq prinsiplari zahirida mustahkamlanishini aytishimiz mumkin.

Umuman olganda, huquq tamoyillari tushunchasini olimlarning fikrlaridan xulosa qilib aniqlashimiz mumkin. Bunga ko'ra, huquq tamoyillari tushunchasi o'zlarining majburiy qonunchilik va boshqa huquqiy vositachiligi bilan bog'lamaydigan hamda ular ma'lum bir huquqqa ega bo'lish zarurligini belgilaydigan yuridik soha. Umumiyroq qilib aytadigan bo'lsak, fan toifalarini ifodalaydi.

Huquq va uning prinsiplarini keng talqin qilish faqat yuqori darajadagi huquqiy ong va huquqiy ma'daniyatga ega bo'lgan tor doiradagi odamlar uchun yaratilgan hisoblanadi. Bu jarayonda me'yoriy yondashuv keng jamoatchilik, fuqarolar va boshqa shaxslar uchun maqbul hisoblanadi. Huquqshunoslarning ta'kidlashicha, "huquqning zamonaviy me'yoriy tushunchasi

⁹ <https://lex.uz/uz/docs/-6445145#-6445421>

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

15-APREL

ANDIJON, 2024

an'anaviy "normativizm" dan sezilarli darajada farq qilishi hamda uning mohiyati qonun normalar yig'indisi sifatida ko'rib chiqilishida emas, balki normalarning o'zini o'zi yetarli vosita sifatida qilinganidir". O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining muqaddimasida ham inson huquqlari hamda davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqlik prinsipi, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olish prinsipi o'z aksini topadi. Shuningdek, Konstitutsiyamizning bir qator o'ta muhim boshqa huquq prinsiplari mustahkamlanadi. Har bir huquq sohasi umumiy hamda tarmoqlararo prinsiplarga tayanishidan tashqari, faqatgina o'ziga xos prinsiplarga ham asoslanadi. Bu prinsiplarning barchasi birgalikda nafaqat huquq sohasi, balki butun huquq tizimining tuzilishi hamda harakatlanishi uchun zamin bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy huquqshunoslik sohasida huquqning me'yoriy tushunchasi sivilizatsiyalashgan fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatni shakllantirish, u bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa ijtimoiy munosabatlarni amalga oshirish maqsadida huquqning ijtimoiy munosabatlarining aniq, nufuzli tartibga soluvchisi sifatidagi rolini asoslash va ochib berishga qaratilgan islohotlar tushuniladi. Mamlakatimizda ham olib borilayotgan islohotlar, fuqarolarning manfaatlari, huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda himoya qilish, jamiyat a'zolarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga hurmat va qat'iy rioya qilish, qonuniylik va tartibni mustahkamlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish ruhida tarbiyalash va shunga o'xshash bir qancha normalarni o'z ichiga oladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, huquq prinsiplari bevosita qonun hujjatlarida mustahkamlanishini kuzatish mumkin, ba'zida huquq normalarining mazmunidan kelib chiqadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 4-10 moddalarida jinoyat qonunchiligi prinsiplari e'tirof etilgan. Unga ko'ra, qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, demokratizm, insonparvarlik, odillik va ayb uchun javobgarlik hamda javobgarlikning muqarrarligi prinsiplari mustahkamlangan. Shu sababli jinoyat qonunchiligida belgilangan tartib-taomillarni hech biri ushbu umumiy prinsiplarga zid kelishi va qo'llanilishi mumkin emas.